

## O'ZBEKISTONDA NORMATIV-HUQUQIY HUIJATLAR LOYIHALARINI TAYYORLASHDA YURIDIK TEXNIKA MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Eshboyev Elyorbek Shuhrat o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*“Huquq sohalari, huquqiy va siyosiy tadqiqotlar amaliy tahlili” yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash jarayonida yuridik texnikaning dolzarb muammolari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, qonun loyihalarida uchrayotgan terminologik noaniqliklar, normativ kolliziyalar, takroriy normalar, havolaki va blanket normalarning nomuvofiq qo‘llanilishi, huquqiy konstruksiyalardagi kamchiliklar hamda qonunchilik tilining murakkabligi masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ta‘minlashda yuridik texnikaning tutgan o‘rni, qonun ijodkorligi jarayonida mavjud institutsional va protsessual muammolar tahlil etiladi. Xorijiy tajriba hamda milliy qonunchilik asosida ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llari, jumladan, yuridik-texnik standartlarni takomillashtirish, qonun loyihalarining ekspertizasini kuchaytirish, LegalTech va raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek huquq ijodkorligi sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Maqola natijalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *yuridik texnika, huquq ijodkorligi, qiyosiy huquq, normativ-huquqiy hujjat, qonunchilik sifati, huquqiy til, huquqiy konstruksiya. Legaltech.*

**Аннотация:** *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются актуальные проблемы юридической техники при подготовке проектов нормативно-правовых актов в Узбекистане. В частности, исследуются вопросы терминологической неопределенности, нормативных коллизий, дублирования правовых норм, несогласованного применения отсылочных и бланкетных норм, недостатков юридических конструкций, а также сложности языка законодательства. Кроме того, в статье рассматривается роль юридической техники в обеспечении качества нормативно-правовых актов, анализируются существующие институциональные и процедурные проблемы в процессе правотворчества. На основе зарубежного опыта и национального законодательства предлагаются пути устранения данных проблем, в том числе совершенствование юридико-технических стандартов, усиление экспертизы законопроектов, внедрение LegalTech и цифровых технологий, а также выдвигаются предложения и*

рекомендации, направленные на повышение качества правотворческой деятельности. Результаты исследования могут способствовать совершенствованию практики подготовки проектов нормативно-правовых актов.

**Ключевые слова:** юридическая техника, правотворчество, сравнительное право, нормативно-правовой акт, качество законодательства, юридический язык, правовая конструкция, LegalTech.

**Abstract:** *This article analyzes, from scientific-theoretical and practical perspectives, the current problems of legal drafting technique in the preparation of draft normative legal acts in Uzbekistan. In particular, it examines issues such as terminological ambiguity, normative conflicts, duplication of legal norms, inconsistent use of blanket and reference norms, deficiencies in legal constructions, as well as the complexity of legislative language. The article also explores the role of legal technique in ensuring the quality of normative legal acts and analyzes existing institutional and procedural challenges in the lawmaking process. Based on foreign experience and national legislation, the article proposes ways to address these problems, including improving legal drafting standards, strengthening expertise of draft laws, introducing LegalTech and digital technologies, and advancing recommendations aimed at enhancing the quality of lawmaking. The findings of the study may contribute to improving the practice of drafting normative legal acts.*

**Keywords:** *legal technique, lawmaking, comparative law, normative legal act, quality of legislation, legal language, legal construction, LegalTech.*

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng huquq tizimini yangilash va qonunchilikni rivojlantirish yo‘lida katta ishlar amalga oshirildi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi<sup>1</sup> yangi demokratik huquqiy tizimning asosini qo‘ydi. Shundan beri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi mingdan ortiq qonunlar va yuz mingdan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar sifati ko‘pincha pastligicha qolmoqda: ayrim qonunlarda terminologik nomuvofiqliqlar, tuzilmaviy kamchiliklar, mantiqiy ziddiyatlar yoki til nuqsonlari uchrab turadi. Bu muammolar qonunning amaliyotda qo‘llanilishini qiyinlashtiradi va davlatning huquqiy salohiyatiga putur yetkazadi<sup>2</sup>.

Akademik Akmal Saidov o‘zining ko‘plab asarlarida milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi va yuridik texnikaning huquqiy rivojlanishdagi

<sup>1</sup> . O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining 'Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida‘gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2000, 14 dekabr. 49-son, 509-modda.

rolini alohida ko'rsatib o'tadi<sup>3</sup>. Xususan, u qonun hujjatlarini tuzish jarayonida maxsus ilmiy-texnik yondashuv bo'lmasa, qabul qilinayotgan hujjatlar samaradorligi jiddiy pasayib ketishini asoslab beradi.

Yuridik texnika huquq ijodkorligining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, rasmiylashtirish, tizimlashtirish va amaliyotga joriy etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy huquqiy davlat qurilishi sharoitida qonunlarning sifati, aniqligi va samaradorligi ko'p jihatdan yuridik texnika darajasiga bog'liqdir. Shu bois bugungi kunda yuridik texnika faqat huquqiy normalarni ifodalash vositasi emas, balki sifatli qonun ijodkorligining mezoni sifatida e'tirof etilmoqda.

Huquq nazariyotchisi Sergey Alekseev yuridik texnikani "huquqni yaratish va ifodalashning ilmiy asoslangan usullari va vositalari tizimi"<sup>4</sup> deb ta'riflaydi. Uning fikricha, mukammal yuridik texnikasiz samarali qonunchilik tizimini barpo etib bo'lmaydi. Xuddi shunday, Rudolf von Jhering huquqning kuchi uning mazmunidagina emas, balki ifoda shaklining aniqligi va puxtaligida ekanini ta'kidlagan<sup>5</sup>. Bu yondashuv bugungi normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga qo'yilayotgan talablar bilan hamohangdir. Yuridik texnikaning ahamiyati haqida Hans Kelsen ham huquqiy norma tizimliliigi va ierarxiyasini ta'minlashda huquqiy konstruksiyalar, terminologik aniqlik hamda normativ uyg'unlikning muhimligini qayd etadi<sup>6</sup>. Germaniya qonun ijodkorligi tajribasida normativ matnlarning lo'nda, aniq va tushunarli bo'lishi "Gesetzgebungstechnik" tamoyillari asosida shakllangan bo'lsa, AQSHda "Legislative Drafting" maktabi huquq ijodkorligida texnik mukammallikni qonun sifatining mezoni sifatida qaraydi. Yaponiyada esa normativ matnlarning soddaligi va amaliy qo'llash qulayligiga alohida urg'u beriladi. Ushbu tajribalar yuridik texnikaning universal ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston huquqiy islohotlari jarayonida ham yuridik texnikaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, ularni ortiqcha kolliziyalar va takrorlardan xoli qilish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada: "*Qonunlar xalq manfaatlariga xizmat qilishi, sodda, tushunarli va ishlaydigan bo'lishi kerak*"<sup>7</sup>, deya ta'kidlagan. Ushbu yondashuv yuridik texnikaning amaliy mohiyatini ochib beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili ham huquq ijodkorligida sifat va samaradorlikni taqozo etadi. Chunki

<sup>3</sup> Saidov, A.X. (2007). Milliy qonunchilik: muammolar va istiqbollar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

<sup>4</sup> Алексеев С.С. Общая теория права. Т.2. – М.: Юридическая литература, 1982. – С. 267–270.

<sup>5</sup> Иеринг Р. Юридическая техника / пер. с нем. – СПб.: Изд-во Н.К. Мартынова, 1905. – С. 45–47.

<sup>6</sup> Kelsen H. *Pure Theory of Law* (Reine Rechtslehre). – Berkeley: University of California Press, 1967. – P. 193–205.

<sup>7</sup> Мирзиёев Ш.М. *Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови*. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 48–52.

fuqarolar uchun tushunarsiz yoki ziddiyatli normativ hujjat huquqiy tartibga emas, aksincha huquqni qo'llashda muammolarga sabab bo'ladi. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida qonunchilikni takomillashtirish, ortiqcha byurokratik tartiblarni qisqartirish va qonunlarning bevosita ishlashini ta'minlash bo'yicha fikrlari yuridik texnikaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida yuridik texnika yangi bosqichga chiqmoqda. "LegalTech" va sun'iy intellekt texnologiyalarining normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlash, kolliziyalarni aniqlash, huquqiy monitoring yuritishdagi roli ortib bormoqda.

**Metodologiya.** Qiyosiy-tarixiy-nazariy va mantiqiy mualliflik yondashuvi.

**Muhokama.** Tadqiqot davomida aniqlangan eng ko'p tarqalgan muammo — *turli normativ-huquqiy hujjatlarda bir xil tushunchaning turlicha atamalar bilan ifodalanishi*. Masalan, "mulkiy huquq", "mol-mulk huquqi", "egalik huquqi" kabi atamalar ayrim qonunlarda sinonim sifatida, boshqalarida esa turli huquqiy ma'noda ishlatiladi<sup>8</sup>.

Muammo nafaqat sinonimik atamalar masalasida, balki bitta qonunning o'zida ham kuzatiladi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan qonunlarning 34 foizida kamida bitta terminologik nomuvofiqliq aniqlandi. Xususan, "shartnoma" va "bitim" atamalari ba'zi qonunlarda bir-birini almashtirish bilan, ba'zilarida esa alohida huquqiy tushunchalar sifatida ishlatiladi<sup>9</sup>.

*Terminologik muammolarning ikkinchi ko'rinishi* — xorijiy atamalarning to'g'ri o'zbek tiliga muqobillashtirilmasligi. Ayniqsa texnik va iqtisodiy-huquqiy sohada ko'plab xorijiy atamalar o'zbekcha muqobili ko'rsatilmasdan to'g'ridanto'g'ri transliteratsiya bilan qonunlarga kiritiladi.

*Terminologik muammolarning uchinchi ko'rinishi* — huquqiy ta'riflar (defenitsiyalar) ning noaniqligi yoki umuman yo'qligi. Ayrim qonunlarda asosiy tushunchalar ta'riflash o'rniga faqat ularning o'xshashlari yoki tavsifiy ifodalari beriladi, bu esa qo'llash amaliyotida noaniqlik va ixtiloflarni keltirib chiqaradi<sup>10</sup>.

Normativ-huquqiy hujjatlarning tuzilishi ham jiddiy muammolar manbai hisoblanadi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan hujjatlar ichida 28 foizida ortiqcha qayta takrorlashga yo'l qo'yilgan. Bir xil normalar yoki qoidalar turli bo'limlarda ikki yoki undan ortiq marta so'zma-so'z yoki qisman qaytarilgani aniqlandi<sup>11</sup>. Tuzilmaviy

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (1996) va Yer kodeksida (1998) 'mulkiy huquq' atamasi turli ma'nolarda ishlatilishining tahlili bu muammoning keng tarqalganligini ko'rsatadi.

<sup>9</sup> O'tkazilgan hujjat tahlili natijalariga asoslangan muallifning shaxsiy xulosasi. Statistik ma'lumotlar 50 ta normativ hujjatni qamrab olgan tadqiqot asosida shakllangan.

<sup>10</sup> Bergel, J.L. (2009). Théorie générale du droit (5e éd.). Paris: Dalloz, 128-bet. Muallif ta'riflar yo'qligi va noaniqligini huquqiy noaniqlikning asosiy manbai deb ko'rsatadi.

<sup>11</sup> Muallifning hujjat tahlili natijalari. Ko'rib chiqilgan 50 hujjatdan 14 tasida mantiqiy takrorlashlar va hajm nomutanosibli aniqlandi.

kamchiliklarning ikkinchi ko'rinishi — normalar hajm va murakkablik jihatidan mutanosibligi ta'minlanmasligi. Bir qonunning ayrim moddalari bir necha qatordan iborat bo'lib, boshqalari esa bir necha sahifaga cho'zilishi mumkin. Bu holat normani idrok qilishni qiyinlashtiradi va noto'g'ri talqinlarga yo'l ochadi.

Texnik jihatdan olib qaraganda, til va uslub muommolari asosiy muommolardan biri hisoblanadi. Yuridik til qoidalariga rioya qilmaslik — O'zbekiston normativ-huquqiy hujjatlarining eng keng tarqalgan kamchiliklaridan biridir. Tadqiqot ko'rsatishicha, ko'rib chiqilgan hujjatlarning 40 foizida til va uslub muammolari mavjud bo'lib, ular quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: noaniq va ko'p ma'noli iboralar, og'ir qurilmali jumlar, umumlashtiruvchi iboralardan noto'g'ri foydalanish<sup>12</sup>.

Qonun matni o'zbek tilida tuzilishi shart bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab hujjatlar avval rus tilida yoziladi, keyin tarjima qilinadi. Bu holat tarjimadan kelib chiqadigan ma'no yo'qotilishi yoki buzilishiga olib kelishi mumkin. O'tkazilgan intervyularda davlat xizmatchilari bu muammoni eng keng tarqalgan va eng muhim muamm sifatida ko'rsatdi.

Til muammolarining yana bir ko'rinishi — ko'rsatmali (imperativ) va tavsivaviy (dispozitiv) normalar o'rtasidagi farqni ifodalovchi modal so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi. “Kerak”, “lozim”, “mumkin”, “ruxsat etiladi” kabi so'zlarning ba'zan o'rinsiz qo'llanilishi normaning majburiy yoki ixtiyoriy xarakterini noaniq qoldiradi<sup>13</sup>. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash tartibida ham jiddiy kamchiliklar mavjud. “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi majburiy yuridik, iqtisodiy va antikorrupsion ekspertizadan o'tkazilishi kerak<sup>14</sup>.

Biroq amaliyotda ekspertiza ko'pincha rasmiy xarakter kasb etadi va hujjatning asl mazmunini tahlil qilish o'rniga faqat uning shakliga e'tibor qaratiladi. Intervyu olingan mutaxassislarning 72 foizi ekspertizaning samaradorligi etarli emasligi haqida fikr bildirdi.

Tartibiy muammoning ikkinchi ko'rinishi — jamoat muhokamasi va maslahatlashuvlarning etarli darajada o'tkazilmasligi. Qonunchilik standartlariga ko'ra, ijtimoiy ahamiyatli qonunlar loyihalari jamoat muhokamasi uchun e'lon qilinishi kerak. Biroq amaliyotda ko'plab hujjatlar juda qisqa muddatda muhokamaga chiqariladi yoki bu jarayon faqat rasmiy talabni bajarish uchun o'tkaziladi<sup>15</sup>. Ko'plab qonun loyihalari jamoatchilik muhokamasi uchun juda qisqa muddatga joylashtiriladi. Bu esa fuqarolar,

<sup>12</sup>Saidov, A.X., & Rashidov, A.M. (2021). O'zbekistonda qonunchilik sifatini baholash metodologiyasi. Huquq va jamiyat, 3(1), 18. Muallif-tadqiqotchilar qonunchilikdagi til muammolarini tizimli ravishda tahlil qilgan.

<sup>13</sup> Intervyular 2023–2024 yillar davomida Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi xodimlari bilan o'tkazildi. Nomlar maxfiylik sababli keltirilmagan

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining 'Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida'gi Qonuni (2000), 22-modda; Vazirlar Mahkamasining 229-son Qarori (2019).

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni (2017, 7 fevral).

ilmiy doiralar va amaliyotchi mutaxassislarining mazmunli taklif berish imkoniyatini cheklaydi. Xalqaro tajribada bunday muhokamalar kamida 30–60 kun davom etishi tavsiya etilsa, ayrim holatlarda milliy amaliyotda bu muddat bundan ancha qisqa bo‘lib qolmoqda<sup>16</sup>. Natijada muhokama jarayoni qonunchilik sifati uchun real vosita emas, balki protsessual talabni bajarish shakliga aylanib qolishi mumkin. Mazkur jarayonlarda sohaviy ekspertiza va fuqarolik jamiyati ishtirokining cheklanganligi normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa iqtisodiy, ekologik yoki ijtimoiy islohotlarga oid murakkab qonun loyihalarida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv yetarli bo‘lmagani keyinchalik kolliziyalar, ijrodagi qiyinchiliklar yoki normaning qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda jamoatchilik ishtiroki yuqori bo‘lgan qonunlarning amaliy samaradorligi 20–30 foiz yuqori ekani qayd etilgan<sup>17</sup>.

Uchinchi tartibiy muammo — hujjat qabul qilingandan keyin uning amaliy tatbiqini kuzatib borish mexanizmining yo‘qligi. Ko‘plab qonunlar qabul qilinganidan keyin ular to‘liq amalga oshirilmasdan yoki yetarli tartibga soluvchi hujjatlar tayyorlanmasdan qoladi. tatistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, normativ hujjatlarning ijro monitoringi sust bo‘lgan tizimlarda huquqni qo‘llashdagi kolliziyalar, normaning qayta o‘zgartirilish ehtiyoji va ijro intizomi bilan bog‘liq muammolar sezilarli yuqori bo‘ladi<sup>18</sup>. Bu esa ortiqcha ma’muriy xarajatlar, normativ beqarorlik va huquqiy ishonch pasayishiga olib keladi. Xorijiy tajribada, xususan Buyuk Britaniya, Germaniya va Kanada amaliyotida qabul qilingan qonunlar ma’lum muddatdan so‘ng samaradorlik auditi asosida qayta baholanadi<sup>19</sup>. Bu esa huquqiy normalarning “hayotiy sikli”ni boshqarishga xizmat qiladi. Milliy amaliyotda esa bu mexanizm cheklangan.

O‘zbekistonda 2017 yildan boshlab normativ-huquqiy hujjatlarning antikorrupsion ekspertizasi joriy etildi. Biroq bu sohadagi muammolar ham mavjud. Ekspertlarning ko‘pchiligi antikorrupsion ekspertiza uchun etarli metodologik bazaning yo‘qligi, belgilangan mezonlar doirasining torligi va ekspertizani amalga oshiruvchi mutaxassislar soni kamligini ta’kidlaydi<sup>20</sup>. Bundan tashqari, ko‘plab hujjatlarda huquq qo‘llovchiga ortiqcha keng ixtiyoriy vakolatlar berilishi, muqobil asoslar va istisnolarning haddan ziyod ko‘pligi kabi korrupsiyaga zamin yaratuvchi omillar aniqlanmoqda. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan hujjatlarning 26 foizida kamida bitta korrupsiyaga undovchi omil mavjud ekanligi aniqlandi<sup>21</sup>.

Xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Germaniya Federativ Respublikasida 'Handbuch der Rechtsförmlichkeit' (Huquqiy shakllantirish

<sup>16</sup> OECD Regulatory Enforcement Review, 2022.

<sup>17</sup> World Bank. Public Consultation and Regulatory Quality Indicators Report, 2022.

<sup>18</sup> UNDP Governance and Rule of Law Indicators Report, 2023

<sup>19</sup> House of Lords Constitution Committee. Post-Legislative Scrutiny Report, London, 2021.

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi (2023). Normativ-huquqiy hujjatlar sifatini baholash hisoboti, 34-bet

<sup>21</sup> Muallifning tahlil natijalari. Korrupsiyaga undovchi omillarning tasnifi Tomin V.A. (2018), 17-modda va qonuniy mezonlar asosida amalga oshirildi

qo'llanmasi) chiqarilgan bo'lib, u qonunchilikda ishlatiladigan barcha asosiy atamalarni ta'riflaydi. Frantsiyadagi "Loi de modernization" esa barcha hukumat hujjatlari uchun standart terminologiya bazasini belgilaydi. Shunga o'xshash mexanizm O'zbekistonda ham ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchidan, har bir qonun loyihasiga ta'riflar moddasi kiritilishi shart bo'lishi kerak. Unda qonunda qo'llaniladigan barcha maxsus atamalar izohlanishi lozim. Bu amaliyot ko'plab rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda<sup>22</sup>. Uchinchidan, mavjud qonunchilikdagi terminologik nomuvofiqliqlarni bartaraf etish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan muntazam ravishda qonunchilikni monitoring qilish va muvofiqlashtirilgan tuzatishlar kiritish mexanizmi yaratilishi zarur.

### XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda yuridik texnika muammolari tizimli xarakter kasb etib, ular asosan to'rt soha bo'yicha namoyon bo'ladi: terminologik nomuvofiqliqlar, tuzilmaviy kamchiliklar, til va uslub muammolari hamda tartibiy (protsessual) bo'shliqlar<sup>23</sup>.

Terminologik muammolar bo'yicha ko'rib chiqilgan qonunlarning 34 foizida kamida bitta terminologik nomuvofiqliq aniqlandi. Bu holat huquq qo'llash amaliyotida noaniqlik va ixtiloflarni keltirib chiqaradi.

Tuzilmaviy kamchiliklar bo'yicha 28 foiz hujjatlarda ortiqcha takrorlanish, hajm nomutanosibliigi va yo'llovchi normalar noto'g'ri qo'llanilishi aniqlandi. Bu holat qonunni idrok qilish va qo'llashni qiyinlashtiradi.

Til va uslub muammolari ko'rib chiqilgan hujjatlarning 40 foizida mavjud ekanligi aniqlandi. Bu son boshqa sohalardagi kamchiliklarga qaraganda ko'proq, bu esa til-uslub sifatini oshirishni birinchi darajali vazifa sifatida belgilaydi<sup>24</sup>.

Antikorrupsion ekspertiza sohasida ham jiddiy muammolar mavjud bo'lib, ko'rib chiqilgan hujjatlarning 26 foizida kamida bitta korrupsiyaga undovchi omil aniqlandi.

### Tavsiyalar.

***Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar uchun yagona majburiy yuridik texnika standartlarini joriy etish.***

Normativ-huquqiy hujjatlar sifati va ichki izchilligini ta'minlash maqsadida barcha hujjat turlari uchun majburiy yagona drafting standartlarini ishlab chiqish va normativ darajada tasdiqlash maqsadga muvofiq. Mazkur standartlarda hujjat tuzilishi, modda va qismlar tizimi, blanket va yo'llovchi normalardan foydalanish chegaralari, huquqiy terminologiya, normaning lo'ndaligi va aniq ifodalanishi bo'yicha yagona talablar belgilanishi lozim.

<sup>22</sup> Tiller, J., & Bonell, M.J. (2019). Legislative drafting: A modern guide. London: Hart Publishing, 47-bet

<sup>23</sup> Ushbu xulosa muallifning shaxsiy tadqiqot natijalari va tahliliy kuzatuvlariga asoslanadi. Statistik ko'rsatkichlar 50 hujjat tahlili asosida shakllangan.

<sup>24</sup> Muradov, E.I. (2020), 40-bet

Bu borada xorijiy tajribada ijobiy amaliyot mavjud. Xususan, Buyuk Britaniyada **Office of Parliamentary Counsel Drafting Guidance**, AQShda **Legislative Counsel Manual**, Yevropa Ittifoqida esa **Joint Practical Guide for EU Legislative Drafting** hujjatlari qonun loyihalari tayyorlashda majburiy metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model asosida O'zbekistonda "Normativ-huquqiy hujjatlar yuridik texnikasi yagona standarti"ni ishlab chiqish qonunchilik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

*Ikkinchidan*, til va uslub muammolarini bartaraf etish maqsadida har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi majburiy ravishda til-uslub ekspertizasidan o'tkazilishi kerak. Bu ekspertizani O'zbek tili va adabiyoti instituti va davlat tili qo'mitasining mutaxassislari amalga oshirishi maqsadga muvofiq<sup>25</sup>.

Qonunchilik hujjatlarini avval rus tilida tuzib, keyin tarjima qilish amaliyotidan voz kechib, dastlabki loyihani o'zbek tilida tayyorlash standartini joriy etish zarur. Bu ish qonunchilik texnikasi bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash va ularni davlat organlari tarkibiga kiritish bilan bevosita bog'liq.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" strategiyasini e'lon qilishda va 2021-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida davlat idoralari faoliyatini modernizatsiya qilish chog'ida, shu jumladan qonunchilik sohasidagi islohotlar davomida o'zbek tilini rivojlantirish va uni davlat hujjatlarida to'g'ri qo'llash zarurligini ta'kidlagan<sup>26</sup>.

*Uchinchidan*, kadrlar tayyorlash va ilmiy metodologik ta'minotni kuchaytirish, yuridik texnika muammolarini yechishning yana bir muhim yo'nalishi — qonunchilik loyihalari sohasida ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashni yaxshilashdir.

Shuningdek, Adliya vazirligi yoki parlamentning tegishli komiteti huzurida yuridik texnika metodologiyasi bo'yicha maxsus ilmiy-amaliy markaz tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu markaz qonunchilik sifatini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishi, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi va qonunchilar uchun treninglar tashkil etishi mumkin.

Akmal Saidov ta'kidlaganidek, zamonaviy O'zbekistonda huquqiy islohotlarning asosiy shart-sharoitlaridan biri bu yuridik texnikani ilmiy asosda rivojlantirish va uni huquq ijodkorligi amaliyotida faol qo'llashdir. Bu esa o'z navbatida, qonunchilik madaniyatini yuksaltirishga bevosita xizmat qiladi<sup>27</sup>.

## Foydalanilgan adabiyotlar

### I. Rahbariy adabiyotlar

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasining O'zbek tili haqidagi yangi tahrirdagi Qonuni (2019)

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. (2022, 28 yanvar). 'Yangi O'zbekiston' taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmon. PF-60-son.

<sup>27</sup> Saidov, A.X. (2014). Qonunchilik texnikasi, 178-bet. Muallif ta'kidlaydi: 'Yuridik texnika madaniyati — huquq davlatini barpo etishning zaruriy sharti.'

**1.1.** Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvar. – Toshkent, 2022.

**1.2.** Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma — Toshkent: “Sharq”. NMIU, 20 dekabr 2022 yil.

**1.3.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son Farmoni *Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida*.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

**2.1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>

**2.2.** O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 14 dekabr 2000 yil.

**2.3.** O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111189>

**2.4.** O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. 1998 yil. // <https://lex.uz>

**2.5.** O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 2019 yil.

## **III. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

**3.1.** Tomin V.A. *Yuridicheskaya tekhnika*. 2-nashr. — Sankt-Peterburg, 2018.

**3.2.** Alekseyev S.S. *Obshchaya teoriya prava*. — Moskva: Prospekt, 2009.

**3.3.** Valiev R.G. *Yuridicheskaya tekhnika i tekhnologiya*. — Moskva, 2016.

**3.4.** Davydova M.L. *Yuridicheskaya tekhnika: problemy teorii i metodologii*. — Volgograd: VolGU, 2009.

**3.5.** Vlasenko N.A. *Teoriya gosudarstva i prava*. — Moskva: Prospekt, 2011.

**3.6.** Pigolkin A.S. (red.) *Zakonotvorchestvo v Rossiyskoy Federatsii*. —

## **IV. Monografiyalar va ilmiy adabiyotlar**

**4.1.** Saidov A.X. *Milliy qonunchilik: muammolar va istiqbollari*. — Toshkent: O‘zbekiston FA, 2007.

**4.2.** Saidov A.X. *Qonunchilik texnikasi: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: Adolat, 2014.

**4.3.** Saidov A.X. *O‘zbekistonda demokratik huquqiy islohot: yutuqlar va muammolar*. // Davlat va huquq, 2018, №4.

**4.4.** Muradov E.I. Qonunchilik jarayonidagi texnik kamchiliklarning huquq qo'llash amaliyotiga ta'siri // *Davlat va huquq*, 2020, №6(3).

**4.5.** Saidov A.X., Rashidov A.M. O'zbekistonda qonunchilik sifatini baholash metodologiyasi // *Huquq va jamiyat*, 2021, №3(1).

### **V. Xorijiy tajriba va qiyosiy-huquqiy manbalar**

**5.1.** OECD Regulatory Policy Outlook. Paris, 2023.

**5.2.** OECD Regulatory Enforcement Review. Paris, 2022.

**5.3.** World Bank. *Public Consultation and Regulatory Quality Indicators Report*. Washington, 2022.

**5.4.** UNDP Governance and Rule of Law Indicators Report. New York, 2023.

### **VI. Muallif tadqiqotlari va empirik materiallar**

**6.1.** Muallif tomonidan 2015–2024 yillarda qabul qilingan 50 ta normativ-huquqiy hujjat tahlili materiallari.

**6.2.** 2023–2024 yillarda Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy Majlis xodimlari bilan o'tkazilgan intervyular materiallari.

**6.3.** Muallifning statistik va tahliliy xulosalari.